

# G’IJJAK CHOLG’USINING TARIXI VA UNING IJROCHILARI TO’G’RISIDA

Otamurod Xolmirzayev Eshmirza o’g’li,

JDPI San’atshunoslik fakul’teti

Musiqiy ta’lim kafedrasи o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Forobiy tabir bilan aytadigan bo’lsak Eng mukammal cholgu bu- Inson ovosi, unga yaqin cholg’ular esa nay va Rubab (G’ijjak)dir. Dunyo xalqlari orasida torli kamonli cholg’ular juda keng tarqalgan ularning ohangi, ijro yo’nalishi, nolasi va ko’rinishi o’ziga hosdir, shu qatorda o’zbek xalq cholg’usi bo’lmish g’ijjak ham bular orasida ajiralib turudi.

**Аннотация:** По словам Фароби, самый совершенный инструмент - это человеческий голос, а самые прекрасные инструменты - это най и рибаб (гиджак). Струнно-смычковые инструменты очень распространены у народов мира.

**Annotation:** According to Farobi, the most perfect instrument is the human voice, and the most beautiful instruments are nai and ribab (gidjak). Stringed instruments are very common among the peoples of the world.

**Kalit so’zlar:** musiqa, cholg’u sozi, ijrochi, mahorat, tarix.

**Ключевые слова:** музыка, музыкальный инструмент, исполнитель, мастерство, история.

**Key words:** music, musical instrument, performer, skill, history.

G’ijjak azaldan xalqimizning sevimli cholg’ularidan hisoblangan. Uning kelib chiqishi X-XI asrlarga to’g’ri keladi. Bu xususda qiziqarli ma’lumot bor. “Ziynat al – majolis” (Ziynatlarning majlisi) analogiyasida hikoya qilinishicha, Forobiy Ray shahrida Soxib ibn Abbold qabulida bo’lganida, vazir sharafiga o’tkazilgan ziyofatda o’zi ixtiro qilgan cholg’uda kuy ijro etadi. Tashqi ko’rinishdan kichik qovoqqa o’xshagan bu soz “g’ipchak” nomi bilan tanilgan ekan. Bu cholg’uda Forobiy uch qismli kuy ijro etib tinglovchilarni ham yig’latgan, ham kuldirgan va hayajonga tushirgan ekan. G’ijjak avval ikki torli, Bobur zamonidan uch torli cholg’u bo’lgan. “Boburnoma”da aytilishicha, o’z davrining mashhur sozandası Qulmuhammad-udiy g’ijjakka uchinchi torni tortib yuqori ijrochilik mahoratini namoyish qilgan.

Darveshalining risolasida ko’pgina g’ijjakchilar qatori Ustod Zaytuni-g’ijjaki haqida qimmatli ma’lumot bor. U tengi yo’q g’ijjakchi bo’lib, maqomning turli pardalarida chiroyli kuylar – peshravlar bastalagan. Ayniqsa, saqil usulidagi Husayniy maqomi ohanglarida yaratilgan peshrav (oldinga intiluvchi) barchani hayratga solgan ekan. Alisher Navoiy g’ijjakni ta’riflab - “U cho’ziq nolalar chekib, yolboradi”, - deydi. Alisher Navoiy “Mahbub ul qulub” asarida har bir

sozga alohida ta'rif berib ularni nechog'liq musiqa olami uchun muhim ekanligini ta'riflab o'tadi;

*Agar kishi may havosidin chiqarur,  
G'ijjak Maddi nolasi bila anga yolborur.  
Va tanbur pardadagi fitnadin halok etar,  
Va ofiyat pardasin chok etar.  
Va chang zorlig' bila bo'g'zin tortar,  
Va ud lisoni nog'masining targ'ibi changdin ham ortar.  
Andakim rubob boshin yerga qo'yub niyoz ko'rguzgay,  
Va qubuz quloq tutib ayshga targ'ib ohangini tuzgay.  
Mayxonada kimki maydin ibo qilgay,  
Nay uni bir dilkash navo bila ani rasvo qilgay.  
Chun qonun va chag'ona nolasi quloqqa tushg'ay,  
Va mahvashi soqiy yukunub, may oyoqqa tushgay,  
Ul vaqt zuhdu taqvoga ne e'tibor.*

Hazrat Navoiy har bir cholg'u sozining nechog'liq zabardast ohangga egaligini tasvirlab berib ularni kuchini nimaga qodir ekanligini bayon etadilar.

Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab ud cholg'ular, naychilar, g'ijjakchilar, changchilarning o'z iste'dodlarini namoyon etishga ko'maklashgan "Boburnoma"da o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilarining nomlari zikr etilgan. Boburning ta'kidlashicha, "Ustod-qul Muhammad Shayboniy va Husayn uddiy kabi mohir cholg'uchilar Bek (Navoiy)ning bevosita yordami va homiyligida katta shuhrat qozondilar, ulkan muvaffaqiyatlarga erishdilar". Bobur shuningdek, Shoh Qulliy – G'ijjakiy, Husayn Uddiy, Xo'ja Abdulloh Marvarid Qonuniy kabi mohir ijrochilarini ham tilga oladi. Navoiy davrida nay, ud, g'ijjak, qonun, karnay, surnay, nog'ora, doira, chang ijrochiligi keng tarqalgan edi. Ularning hammasi ansamblъ ijrosida ham, yakka ijroda ham birdek qo'llanilgan. Chang yakka cholg'u sifatida alohida ajralib turgan. Chang eng keng tarqalgan cholg'u sifatida ko'plab adabiy manbalarda qayd etiladi. Chang cholg'uchilarini o'z asarlarida Firdavsiy-Ozoda, Navoiy- Dilorom, Nizomiy esa Fitna deb atashgan. XV-XVII asr yozma yodgorliklari ma'lumotlarini qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkin, ya'ni bu davrga kelib O'rta Osiyoda xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyati o'z kamolotiga yetdi.

O'zbek xalq cholg'ulari ijrochilarini ayni chog'da o'zlari ham musiqa asarlari yaratganlar. O'sha paytdayoq mohir chang, ud, g'ijjak, qonun, nay, tanbur, bo'lamon ijrochilarini va yetuk xonandalar bo'lган, ular o'ziga xos ansambllar tuzishgan. Shuningdek, yakkanavoz ijrochilik ham rivojlangan. Bu o'zbek milliy musiqa cholg'ularini nechog'lik uzoq tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Yillar o'tgani sayin bu cholg'ular ijro yo'llari ham tuzilishi ham takomillashib rivojlanib

kelmoqda. XX asrga kelib, O'zbekistonda g'ijjak ijrochiligi juda ommalashib va rivojlanish davri boshlandi. Bunga Andijon g'ijjak ijrochilik mакtablarining mohirlik darajasiga erishganligi yorqin misol bo'ldi. Ijrochilik amaliyotida Mo'minjon Sobirov, Komiljon Jabborov, To'xtasin Jalilov, Nabijon Xasanov, G'anijon Toshmatov kabi yetuk sozandalar yetishib chiqib, elga mashhur bo'ldilar. Ular nafaqat ijrochilik, balki musiqa ijodiyotiga ham samarali hissa qo'shdilar. Zamonaviy musiqa san'ati amaliyotida bu o'ziga xos an'anaga aylanib bormoqda desak ham adashmaymiz. Chunki, zamonaviy jarayonda keksa ustalardan G'ulomjon Xojiqulov, Salohiddin To'xtasinov, yetuk san'atkorlardan Abdushoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov, Ziyovuddin Qosimov, Tursunboy Jo'rayev, Ahmadjon Dadaev, Muhammadjon Marahimov, Salohiddin Azizboev, O'tkir Qodirov, Murodjon Norqo'ziev, Ulug'bek Xojiqulovlar ham g'ijjak ijrochiligi va musiqa ijodiyotida munosib faoliyat olib bormoqdalar. G'ijjak ijrochilik san'atining eng go'zal an'analarini davom ettirib, yosh avlodga munosib targ'ib etishda o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Ma'lumki, cholg'ular zamonlar o'tishi bilan mukammallahib boradi. Ayrimlari o'z holicha saqlanib moslashib borsa, ayrimlari iste'moldan chiqib boradi. G'ijjak cholg'usi esa, davrlar sinovidan o'tib bizning kunimizgacha o'zining iじro xususiyatlarini yanada yorqinroq namoysh qila oladigan nafosatli soz sifatida rivojlanib kelmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri g'ijjak tovushining inson ovoziga yaqinligi, mungligening esa – inson ruhiyati bilan oshnoligi desak mubolag'a bulmas. Shu o'rinda tarixda bu soz, o'z ijrochiligi bilan mashhur bo'lган sozandalarning ijodlari va nomlarini umrboqiylik xususiyatiga ega bo'lishida ham muhim ahamiyat kasb etganini qayd etish lozim. XX asrga kelib To'xtasin Jalilov, Mamadaziz Niyozov, Komiljon Jabborov, Nabijon Xasanov, G'anijon Toshmatov, Ollonazar Xasanov, G'ulomjon Hojiqulov, Yunusqori Yusupov, hozirda Qahramon Komilov, O'lmas Rasulov, Abduxoshim Ismoilov kabi otashqalb kamon ustalarining g'ijjak sozi ijrochiligidagi o'z uslublariga ega bo'lib xalqimiz qalbidan joy olganini guvohimiz. Shu bilan birga ularning ushbu cholg'u ijrochiligi rivojiga qo'shgan hissalari beqiyosdir. Qaysi bir sozning ijrochilik amaliyotida ijro yo'llari, ijro uslublarining xilma-xil namunalari shakllanar ekan, bu – mazkur sohaning boy imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolatdir.

Bir necha yillardan beri shakllanib kelgan nota yo'lidagi ijrochilik texnikasi bilan birga an'anaviy g'ijjak ijrochilik uslubiyotini o'zlashtirish yo'l – yo'riqlari ishlanib kelindi. Bu ishlanmalar yosh g'ijjakchilar bilan birga o'rta va oliy o'quv yurti talabalarini mohir sozanda etib tarbiyalashda xizmat qilib kelmoqda. Bajarilgan ishlarda mashhur kamonchi, mohir bastakor Abdu-hoshim Ismoilov xalq an'anaviy musiqiy merosiga suyangan holda o'zining zamonaviy talqindagi

uslubini yaratgan, ushbu ijrolarning uyg'unlashuvida o'ziga xos ijroviy yo'nalishga ega bo'lган ijodkordir. U qadimiy g'ijjak cholg'usi nimalarga qodir ekanligini o'z ijrochilik mahorati bilan isbotladi.

Abduhoshim Ismoilov 1952 yilda Farg'ona viloyati Quva tumani Chaman qishlog'ida tavallud topdi. Uning bobosi usta Juma bobo (105 yoshda vafot etgan) dehqonchilik bilan bir qatorda musiqaga ham ixlosmand bo'lib, g'ijjak, tanbur chalib, ashula aytardi va Quva deparasida nom taratgan edi. Onasi Faxriniso opa ham (100 yoshda vafot etgan) gohida dutor, childirma chalib, ota kasbini ulug'-lagan holda mahalla ayollari yig'inlarida qo'shiq aytardi, otasi Ismoil aka qator bog'lar yaratgan, dehqonchilik bilan shug'ullanardi.

Yosh Abduhoshim dastlabki saboqlarni bobosidan, onasidan, keyinchalik taniqli san'atkor bo'lib yetishgan tog'asi Omonjon va akasi Sharofiddinlardan oldi. O'sha davrda Quva tumanida hukm surgan ijodiy muhit ham uning taqdirida muhim o'rinn tutdi. Tavakkal Qodirov, Isroiljon Usmonov singari mashhur hofizlar yosh Abduhoshimni san'atga bo'lган iste'dodini ko'ra oldilar va Farg'ona san'at bilim yurtiga tavsiya etdilar. Bilim yurtida ustoz Omonjon Abdulhakimovdan g'ijjak sinfida tahsil oladi. Bastakor va sozanda Muhammadsiddiq Madalievdan xalq an'anaviy musiqiy ijrolarini va bastakorlik sirlarini o'rganadi.

1972 yilda o'qishni tugatib, Toshkent shahridagi ichki ishlar qo'shinlari harbiy garnizoni qoshida tuzilgan Ikromjon Bo'ronov rahbarligidagi ansamblida xizmat qiladi. Harbiy xizmatdan so'ng 1975 yili Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriysi sharq musiqasi kulliyotiga o'qishga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomladi.

Bu dargohda Faxriddin Sodiqov, Mahmudjon Muhammedov, Orif Alimahsumov, Turg'un Alimatov singari ustozlardan sozandalik yo'llari, bastakorlik sirlarini o'rganadi. 1974 yildan uning ijodiy faoliyati Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli bilan bog'landi. Dastlab bu ansamblga musiqachi, musiqa rahbari va keyinchalik badiiy rahbar bo'lib ishladi.

Abduhoshim Ismoilovning ijodiy faoliyati bir necha yo'nalishlarda o'z aksini topgan bo'lib, ijrochilikning turli qirralari namoyon bo'ldi. Avvalo, uning sozandalik faoliyatiga nazar tashlasak, g'ijjak sozining mohir ijrochisi sifatida Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov, G'ulomjon Hojiqurov singari ustoz san'atkorlar an'analarini davom ettirib, mumtoz musiqiy merosimizga suyangan holda ijrochilik maktabi yaratganining guvohi bo'lamiz. Ikkinci tomondan, g'ijjak sozining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijro texnikasi vositasida zamonaviy talqinlardagi ijro uslubini kuzatamiz. Bunga misol tariqasida "Holimni so'rma", "Dil nolasi", "Kamon nidosi", "Qalb sadosi", "Bazm kuyi", "Gullola", "Hayoli qiz", "Visol" va boshqalarni qo'shish mumkin. Ayniqsa, ushbu ijrolarni rivojlantirib Abdulahad Abdurashidov, Abdurahmon Xoltojiev singari taniqli

sozandalar ishtirokida tuzgan “O’zbek virtuozlari” ansamblı ijrosidagi “Mustaqillik”, “Favora”, “To’yona”, “Al-Farg’oniy”, “Buyuk chinor”, “Hayronman” singari asarlar timsolida ko’ramiz.

Abduhoshim Ismoilovning bastakorlik ijodi ham serqirra bo’lib, ommabop kuy va qo’shiqlardan tarkib topgan va xalq orasida mashhurdir. O’zbek mumtoz shoirlari g’azallariga bastalangan “Dilinga g’amzadin”, “Yorsan”, “Osmonda ham yo’q”, “Munavvar qil”, “Ayriliq”, “Yor emas”, “Sarvinoz”, “Tarahhum et-ma-ding”, “Unutma”, “Sensiz mushkuldir”, “Uyg’onmasun”, “Yorima ayting” ashulalari ustoz bastakorlar yaratgan asarlarga hamohang tarzda yaratilgan bo’lib, g’azal ruhi va musiqasining vobastaligida ajib bir ijro sayqalini kasb etadi.

Xonandalarning ijro imkoniyatlaridan kelib chiqib, muayyan xonandalular uchun yaratilgan qo’shiqlar alohida ijod qirrasi sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, taniqli xonanda G’ulomjon Yoqubov ijrosiga moslangan “Yo ohumiding”, “Zilola”, “Oshiqnoma”, “Sen o’zing”, “Qaraysan”, “Toshkentim”, “Chiroyli” va boshqa qator qo’shiqlar, Ikromjon Bo’ronov ovoziga moslanib yaratilgan “Sen bahorni sog’inmadingmu”, “Bo’lmas”, “Tog’li qiz” qo’shiqlari, qizlar ovoziga mo’ljallangan “Oybuloq”, “Ko’rmadingiz” singari qo’shiqlar shular jumlasidandir. Abduhoshim Ismoilovning o’zbek musiqiy san’at rivojiga qo’shgan hissasi munosib taqdirlanmoqda. 1990 yili O’zbekiston xalq artisti, 1997 yili “Shuhrat” medali, 1999 yili “Mehnat shuhrati” ordeni, 1999 va 2003 yilda “Yunesko” mukofoti, 2000 yilda “Qoraqalpog’iston xalq artisti” hamda “Ofarin” mukofoti va qator sovrinlarga sazovor bo’ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Toshmuhammedov M. G’ijjak darsligi – T O’qituvchi, 1995
2. Akbarov I. Musiqa lug’ati – T O’qituvchi, 1997
3. Abu Nasr Forobiy (873-950) “Musiqa haqida katta kitob” (“Kitob ul-musiqa al-kabir”)
4. [www.library.ziyonet.uz](http://www.library.ziyonet.uz)